

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

GEOLOGIYA-QIDIRUV
ISHLARI BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent – 2025

Geologiya-qidiruv ishlari qiymatini joriy narxlarda hisob-kitob qilish tartibi to'g'risida uslubiy qo'llanma. T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. – 16 bet.

Mazkur uslubiy qo'llanma geologiya-qidiruv ishlari qiymatini joriy narxlarda hisob-kitob qilish tartibini belgilashga qaratilgan bo'lib, u geologiya-qidiruv tashkilotlari, loyiha institutlari, buyurtmachi korxonalar hamda tegishli vazirlik va idoralar uchun amaliy yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi. Qo'llanmada geologiya-qidiruv ishlarining turlari bo'yicha xarajatlarni shakllantirish mezonlari, ularni joriy narxlarga keltirish usullari, hisob-kitob bosqichlari hamda moliyaviy-iqtisodiy asoslarni tayyorlash tartibi yoritilgan. Hujjat geologiya-qidiruv loyihalarini rejalashtirish va moliyalashtirishda yagona yondashuvni ta'minlash, hisob-kitoblarning shaffofligi va asoslanganligini oshirish hamda tarmoqqa oid normativ talablarning amaliy ijrosini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

MUNDARIJA

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar	3
Kirish.....	4
Umumiy qoidalar	Ошибка! Закладка не определена.
Geologiya-qidiruv ishlari qiymatini joriy narxlarda hisob-kitob qilish uslubiyoti.....	10
Geologiya-qidiruv ishlari qiymatini joriy narxlarda hisob-kitob qilish uchun davr xarajatlari	13
Geologiya-qidiruv ishlari qiymatini joriy narxlarda hisob-kitob qilish uchun foyda hisobiga qilinadigan xarajatlar	14

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi 92-son "Geologiya-razvedka ishlarini tashkil etish va olib borish tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-avgustdagi 498-son "Geologiya, kon-metallurgiya va misni qayta ishlash sanoatini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 4-dekabrdagi 617-son "Yer qa'rini geologik o'rganish, foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi boshqaruv va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida "gi qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda yer qa'ridan oqilona foydalanish, geologiya-qidiruv ishlarini tashkil etish va moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, shuningdek tarmoqda investitsiya loyihalarini samarali rejalashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Geologiya-qidiruv jarayonlarida xarajatlarni aniq hisobga olish, ish hajmlarini asosli belgilash, smeta-hujjatlarni zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish hamda hisob-kitoblarda shaffoflik va ishonchlilikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Geologiya-qidiruv ishlari qiymatini joriy narxlarda hisob-kitob qilishning yagona tartib asosida yo'lga qo'yilishi geologik izlanishlar natijadorligini oshirish, davlat va xususiy mablag'lardan maqsadli foydalanish, buyurtmachi va ijrochi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarda aniqlikni ta'minlash, shuningdek loyiha va smeta hujjatlarining asoslanganligini kuchaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mazkur uslubiy qo'llanma geologiya-qidiruv ishlari qiymatini joriy narxlarda hisob-kitob qilish tartibini belgilash, xarajatlar tarkibi va ularni guruhlash, ish turlarini baholash mezonlari, narx ko'rsatkichlarini qo'llash tartibi, smeta va hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish, kelishish hamda tasdiqlash jarayonlarini izohlash bo'yicha zarur ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Qo'llanma geologiya-qidiruv ishlarini buyurtma qiluvchi va amalga oshiruvchi tashkilotlar, tarmoq bo'linmalari hamda mas'ul mutaxassislar uchun hisob-kitoblarni to'g'ri, aniq va shaffof yuritishda amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

UMUMIY QOIDALAR

Geologiya-qidiruv ishlari qiymatini joriy narxlarda hisob-kitob qilishning asosi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:



geologiya-qidiruv ishlariga oid smeta normalaridan



mehnat sarfi qiymatini baholash uchun Statistika hisoboti shakllarining muvofiq o'tgan yil uchun ishlab chiqarish xodimlarining o'rtacha ish haqini qo'llash;



moddiy resurslarga oid amaldagi mavjud narxlar kataloglarini yuritish va smetani tuzish chog'idagi hisob-kitoblarda ulardan foydalanish;



qonunchilikka muvofiq asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasiga oid xarajatlarni hisob-kitob qilish.

BILIB OLING!

Smeta normalarida yoki boshqa hujjatlarda ko'zda tutilmagan geologiya-qidiruv ishlari qiymatini yangi smeta normalari chiqqunga qadar belgilangan tartibda buyurtmachi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan loyiha tarkibida ko'zda tutiladigan ish tarkibiga, shunga o'xshash ish turi yoki xarajatlar asoslangan holda hisob-kitob qilish bo'yicha loyihalashtiriladiganiga yaqin bo'lgan ishlar turi uchun tasdiqlangan normalar bo'yicha belgilash mumkin.



Geologiya-qidiruv ishlariga geologiyaga oid axborot beradigan **barcha turdagi ishlar** kiradi.

Qo'shimcha ishlar va xarajatlarga vaqtinchalik dala bazalarini jihozlash, yuklar va xodimlarni transportda tashish xarajatlari va qoplanadigan xarajatlar kiradi.



Geologiya-qidiruv ishlari obyektlaridagi vaqtinchalik dala bazalarini jihozlashning joriy narxlardagi smeta qiymati, ushbu ishlar hajmlaridan va ularni bajarishga oid smeta narxlaridan kelib chiqqan holda loyihani amalga oshirish vaqtiga belgilanadi.

Loyiha ma'lumotlariga ko'ra konstruksiyalarni, binolar va inshootlarni buzib tashlash natijasida takroran qo'llash uchun yaroqli bo'lgan konstruksiyalar, materiallar va buyumlar olish ko'zda tutiladigan hollarda smetalar yakuni bo'yicha mablag'lar miqdorini kamaytiradigan "qaytarma materiallar" ma'lumot uchun keltiriladi.



Bajarilgan ishlarga oid dalolatnoma tuzishda bunday konstruksiyalar, materiallar va buyumlar qiymati komissiya tomonidan eskirishini chegirishni, shuningdek ularni foydalanish uchun yaroqli holga keltirishga doir xarajatlarni hisobga olgan xolda belgilanadi.

DIQQAT!

Komissiya tarkibiga buyurtmachining mas'ul mutaxassisleri, buxgalteriya xodimlari va moddiy javobgar shaxslari kiritilishi lozim. Komissiya buyurtmachi rahbarining buyrug'i bilan tuziladi.



Binolar va inshootlarni qurishda va qismlarga ajratishdagi (buzib tashlashda) ishlarning qishki qimmatlashishiga oid xarajatlar smetaga alohida satr bilan kiritiladi.

Kompleks ishlab chiqarish-texnik va sanitariya-maishiy ehtiyojlar, shuningdek smeta normalarida ko'zda tutilgan asbob-uskunalar to'plamiga kirmaydigan, burg'ulash brigadasi ish joyini berkitish uchun foydalaniladigan mobil binolar va inshootlarning amortizatsiyasiga oid xarajatlar loyiha tarkibida tasdiqlanadigan tegishli hisob-kitob bilan belgilanadi va dala ishlari qiymatiga loyihaning amal qilish muddatiga qo'shimcha xarajatlar sifatida alohida satr bilan kiritiladi.



Vaqtinchalik yo'llarni tiklashga, yo'llar, aerodromlar (qordan tozalashdan tashqari), so'qmoqlarni, daryolar farvaterlarini va ishlab chiqarish maqsadidagi boshqa qurilish obyektlarini foydalanishga yaroqli holda saqlashga oid xarajatlar smeta normalari bo'yicha belgilanadi.

Yordamchi ishlar va xarajatlarga quyida sanab o'tiladigan xarajatlar ham kiradi:



qurilishlar smetasiga kirmaydigan asbob-uskunalarni montaj qilish va ishga tushirish-sozlash ishlariga, shu jumladan mavjud qo'shimcha va yordamchi asbob-uskunalarni hisobga olgan holda hisoblash komplekslariga oid asbob-uskunalarni o'rnatish va montaj qilishga doir xarajatlar;



kon-shaxta uskunalarini almashtirishga doir ishlar.


DIQQAT!

Qoplanadigan xarajatlarga qonunchilikda ko'zda tutilgan hamda amalda qilingan xarajatlar (xizmat safarlari, dala ta'minoti va yerdan foydalanuvchilarning zararlarini qoplash) bo'yicha ishlarni bajaruvchilarga qaytariladigan xarajatlar kiradi.

Maqsadiga ko'ra xizmat safarlari quyidagilarga bo'linadi:

- ✔ ishlab chiqarish (geologiya-qidiruv ishlarini loyihalash hamda tematik va boshqa ishlarni bajarish uchun materiallar to'plash, loyiha bo'yicha ish jarayonida olingan geologik natijalarni himoyalash bo'yicha);
- ✔ loyihaning vazifalariga bog'liq yig'ilishlarda, konferensiyalarda, anjumanlarda, shu jumladan xorijdagi, qatnashish.

Xizmat safarlariga oid **smeta xarajatlari** qonunchilikda belgilangan limitlar doirasida **xizmat safarlarining soni va davomiyligidan, borish manzillaridan, yo'lkira qiymati va xizmat safarlari xarajatlari miqdori**dan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilish orqali belgilanadi.



Yer uchastkalarini olib qo'yish yoki vaqtinchalik band qilish natijasida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilariga va mulkdorlariga yetkazilgan **zararlar bo'yicha xarajatlar qonunchilikka muvofiq belgilanadi.**

Materiallar, asbob-uskunalar va ishlab chiqarish xodimlarining **so'nggi yil uchun o'rtacha ish haqi** darajasiga oid narxlarning o'zgarishiga qarab ikkinchi va keyingi har bir yil uchun smeta qiymatiga umumiy smeta qiymati qayta tasdiqlangan holda **smeta ishlari qoldiqlarini bevosita qaytadan hisob-kitob qilish** orqali tuzatishlar kiritiladi.

Smetaga foiz hisobida kiritiladigan xarajatlar rasmiylashtirilgan (rahbar va bosh buxgalterning imzosi va muhri bilan), va oxirgi yil uchun geologiya-qidiruv ishlarini bajarayotgan tashkilotning (yoki uning tuzilmaviy bo'linmalarining) amaldagi xarajatlari asosida tuzilgan ma'lumotnomalar bo'yicha asoslanadi.

Geologiya-qidiruv ishlari qiymatini joriy narxlarda hisob-kitob qilish uslubiyoti

Geologiya-qidiruv ishlari qiymatini joriy narxlarda hisob- kitob qilish uslubiyoti

Geologiya-qidiruv ishlariga oid smetalarni tuzish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan dastlabki ma'lumotlar sifatida foydalaniladi:



ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi miqdorlarini belgilash uchun amaldagi mehnat sarfi normalari;



muayyan ish turiga oid qabul qilingan o'lchov birliklarida materiallarning amaldagi xarajat normalari;



har bir ish turini bajarishda qo'llaniladigan asosiy vositalar turlari hamda ularga oid amortizatsiya ajratmalar to'g'risida amaldagi ma'lumotlar.

Bu muhim!

Joriy narxlardagi smetalarni tuzishda xarajatlarning har bir qismi smetani tuzish paytida amaldagi narxlarga, me'yoriy hujjatlarga va qonunchilik hujjatlariga muvofiq hisob-kitob qilinadi.



Geologiya-qidiruv ishlari birligi qiymati ishlab chiqarish xarajatlaridan, davr xarajatlaridan va ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan 10 % gacha miqdordagi foydadan tashkil topadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi xarajatlar turlarini o'z ichiga oladi:

- ✓ ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ✓ ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ✓ ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- ✓ asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ✓ ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.



Davr xarajatlari va foyda koeffitsiyenti geologiya-qidiruv ishlarining har bir turi uchun ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan hisoblanadi.

Geologiya-qidiruv ishlari birligining joriy narxlardagi qiymati quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$S = (S_{zp} + S_m + S_a + S_p) \times K_{rp.p}$$

bunda:

S — geologiya-qidiruv ishlari birligining joriy narxlardagi qiymati;

S_{zp} — yagona ijtimoiy to'lovlar (bundan buyon matnda YIT deb yuritiladi) ajratmalarini, geologiya-qidiruv ishlari birligini hisobga olgan holda ish haqiga oid xarajatlar;

Sm — geologiya-qidiruv ishlari birligining smeta normalarida hisobga olingan materiallarga, shu jumladan yoqilg'i, moylash materiallari, elektr energiyasi, siqilgan havoga oid xarajatlar;

Sa — har bir ish turi bo'yicha asosiy vositalar ro'yxatiga kiritilgan mashinalar, mexanizmlar, asbob-uskunalarining amortizatsiyasiga oid xarajatlar;

Sp — quyidagi formula bo'yicha belgilanadigan ishlab chiqarish tavsifidagi boshqa xarajatlar:

$$Sp = Szp \times Kpr / 100, \text{ bunda:}$$

Kpr — mazkur Yo'riqnomaning 32-bandida o'rnatilgan tartibda aniqlanadigan ishlab chiqarish tavsifidagi boshqa xarajatlar koeffitsiyenti;

Krp.p — quyidagi formula bo'yicha belgilanadigan davr xarajatlari va foyda koeffitsiyenti:

$$Krp.p = 1 + U / 100, \text{ bunda:}$$

U — mazkur Yo'riqnomaning 34-bandida belgilangan tartibda aniqlanadigan davr xarajatlari va foyda darajasi (miqdori).

Amortizatsiya qismi bo'yicha xarajatlar ushbu ish turida foydalanilayotgan muayyan uskunaning qiymati asosida, qayta baholashni, undan foydalanish vaqtini, loyihada asoslangan amortizatsiyaga oid normalar va usullarni hisoblashni hisobga olgan holda dastlabki qiymati bo'yicha aniqlanadi. Mavsumiy geologiya-qidiruv ishlarini bajarishda amortizatsiya smeta normalariga tuzatish koeffitsiyentlarini qo'llash orqali mavsumiy ish davridan qat'i nazar, butun yilga umumiy norma bo'yicha hisob-kitob qilish orqali belgilanadi.

Geologiya-qidiruv ishlari qiymatini joriy narxlarda hisob- kitob qilish uchun davr

Davr xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- ✔ bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar,
- ✔ umumxo'jalik maqsadidagi boshqa xarajatlar kiradi.

Davr xarajatlari miqdorini belgilashda foydani hisob-kitob qilishda hisobga olinayotgan xarajatlar ro'yxatiga kiruvchi qismlarni hisobdan chiqarish zarur.

Davr xarajatlari va foyda darajasi (miqdori) geologiya-qidiruv ishlarining ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan foizlarda, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$U = (Srp + P) / Spr \times 100, \text{ bunda:}$$

U — davr xarajatlari va foydaning tegishli bazis davrida (oxirgi yil) o'z kuchi bilan bajarilgan geologiya-qidiruv ishlarining ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan foizlardagi darajasi (miqdori);

Srp – tegishli bazis davrida qabul qilingan davr xarajatlari (geologiya-qidiruv ishlariga oid qiymat ko'rsatkichi);

P — ishlab chiqarish tannarxining 10 % oshmaydigan miqdorda tegishli bazis davrida qabul qilingan foyda (geologiya-qidiruv ishlariga oid qiymat ko'rsatkichi);

Spr — buxgalteriya hisobotining ma'lumotlariga ko'ra o'z kuchlari bilan tegishli bazis davrida (oxirgi yil) bajarilgan geologiya-qidiruv ishlarining ishlab chiqarish tannarxi.

Geologiya-qidiruv ishlari qiymatini joriy narxlarda hisob- kitob qilish uchun foyda hisobiga qilinadigan xarajatlar

Loyiha-smeta hujjatlarini tuzishda foyda hisobiga qilinadigan hamda geologiya-qidiruv ishlarining joriy narxlardagi qiymatiga kiritiladigan xarajatlar ro'yxati etib, quyidagilar hisoblanadi:

-  qonunchilikda o'rnatilgan stavkalarda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, shuningdek o'zga soliq va yig'imlar bo'yicha qilingan xarajatlar;
-  xodimlarning bevosita ishlab chiqarishdagi ishtiroki bilan bog'liq bo'lmagan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarga oid xarajatlar (davolanish va dam olish, ekskursiyalar va sayohatlarga, sport seksiyalarida, to'garaklarida, klublarida shug'ullanish uchun ajratiladigan yo'llanmalar, madaniy-ko'ngilochar va jismoniy tarbiya (sport) tadbirlariga borish, obuna bo'lish va boshqa shunga o'xshash to'lovlar), xodimlarning ovqatlanish va yo'lkira xarajatlarini qoplash;
-  jamoa shartnomasiga muvofiq pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir martalik nafaqalar (faqat boshqaruv xodimlariga to'lovlar hisobga olinadi, chunki ishlab chiqarish xodimlariga to'lovlar geologiya-qidiruv tashkilotining 1-T hisobotiga oid qabul qilinayotgan asosiy ish haqida hisobga olinadi*);

- 📌 sog'liqni saqlash obyektlarini, qariyalar va nogironlar uylarini, sog'lomlashtirish oromgohlarini, madaniyat va sport obyektlarini,
- 📌 xalq ta'limi muassasalarini, shuningdek uy-joy fondini saqlashga oid xarajatlarni;
- 📌 ijtimoiy sug'urtaga oid ajratmalarni hisobga olgan holda xodimlarga jamoa shartnomasi bo'yicha qonunchilikda ko'zda tutilganidan tashqari qo'shimcha ta'tillar, ular bo'yicha kompensatsiyalar to'lash
- 📌 ijtimoiy sug'urtaga oid belgilangan ajratmalarni hisobga olgan holda jamoa shartnomasi doirasida xodimlariga moddiy yordam to'lashga oid xarajatlar;

Diqqat!

Geologiya-qidiruv ishlarining umumiy qiymatiga geologiya-qidiruv ishlari qiymatining asosiy narx belgilovchi komponentlariga prognoz qilinayotgan narxlarni o'sish indeksidan kelib chiqib aniqlanadigan tavakkalchilik koeffitsiyenti qo'llanadi.

**Qonunchilik talablarini buzganlar belgilangan tartibda
javobgar bo'ladi!!!**

This image shows a blank sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page, typical of notebook paper or a document template for writing. There are no margins, text, or other markings on the page.